

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

MAKTABGACHA TA'LIM METODIKASI KAFEDRASI

**“DAK ga tavsiya etaman”
Pedagogika fakulteti dekani
_____ f.-m.f.n. T.Abdullayev
“ ___ ” _____ 2019-yil**

**“Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni
applikatsiya ishiga o'rgatishga innovatsion
yondashuv”(Katta guruh misolida) mavzusidagi.**

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Bajardi: «Maktabgacha ta'lim
yo'nalish bitiruvchi 4-kurs 53-15guruh
talabasi G'ofurova Muxarram Xoshimjon
qizi _____
Rahbar: p.f.n., dotsent: Abdullayeva M.A.

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi. Kafedraning
__ sonli bayonnomasi. « ___ » _____ 2019-yil.

Namangan – 2019

MUNDARIJA,

KIRISH.....	3
I . BOB . MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALARNI APPLIKATSIYA ISHIGA O'RGATISHGA INNOVATSION YONDASHUVNING IJTIMOY PEDAGOGIK ASOSLARI	9
1.1.O'zbekiston pedagoglari maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni applikatsiya ishiga o'rgatishga innovatsion yondashuvning ilmiy o'rganilganligi.....	17
1.2 Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni applikatsiya ishiga o'rgatishga innovatsion yondashuvda tarbiyachining o'rni.....	29
II. BOB. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALARNI APPLIKATSIYA ISHIGA O'RGATISHGA INNOVATSION YONDASHUVNING IJTIMOY PEDAGOGIK ASOSLARINING METODIK ASOSLARI	37
2.1 Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni applikatsiya ishiga o'rgatishga innovatsion yondashuvlarda amalga oshirishning metodik ahamiyati.....	37
2.2 Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni applikatsiya ishiga o'rgatishda oila bilan hamkorligi.....	52
2.3TAJRIBA - SINOV ISHLARI VA NATIJALARI.....	57
UMUMIY XULOSA.....	63
TAVSIYALAR.....	65
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	66
ILOVALAR.....	69

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi :

Maktabgacha Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisolanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsni tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdaqi Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5198-sonli Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev raisligida 2017 yil 19 oktyabrg' kuni ta'lim tizimini tubdan tokomillashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishida “...zamonaviy talablarga javob beradigan ilg'or pedagogik usul va uslublarni ishlab chiqish,o'g'uv va o'quv metodik adabiyotlarning yangi adabiyotlarini yaratish. ...farzandlarimizga bilim asoslarini,eng zarur hayotiy tushuncha va ko'nikmalarni o'rgatadigan zamonaviy tarbiya usullarni yaratish vazifalari yuklatilgan”¹ yoshidagi bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatishning mohiyatini nazariy jihatdan asoslash, maktabgacha yoshidagi bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatishning mazmuni, shakli, vosita, usul va metodlarini aniqlash, maktabgacha yoshidagi bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatishning mohiyatining ijtimoiy-pedagogik omillarini aniqlashni, axloqini mustaqil boshqara oladigan shaxsni tarbiyalash mehyorlarini aniqlashning nazariy asoslarini yaratishdek dolzarb vazifa turibdi. “O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim Konsepsiyasi” ijrosini ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalarida yuritiladigan ish hujjatlarini tartibga solish, xodimlarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ma'suliyatlarini oshirish maqsadida. «Unib-o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'nan va jismoniy jihatdan tarbiyalash»¹ farzandlarimizning aqlan etuk, jismonan baquvvat, zamon talablari darajasiga bilimga ega, vatanparvar, milliy qadriyatlarga sodiq farzand etib voyaga etkazish Vatanimizda yashayotgan

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 30 сентябрдаги Мактабгача таълим тизими бoshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari tўғрисида”ги ПФ-5198-сонли Фармони. Халқ сўзи 2017 йил 20 октябр

¹ Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. “Ma'rifat” gazetasi. 2011 yil № 7 4-bet.

barchaning maqsadi, qolaversa, yurtboshimiz, xalqimiz bizdan shuni kutmoqda. «Bularni, ya'ni xalqimiz tomonidan bildirilgan katta umidim, har qaysiningiz o'zingizning halol amaliy mehnatingiz bilan oqlashingiz zarur bo'lgan avans, nasiya desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz»².

Yangi sharoitlardan kelib chiqib, Ta'lim to'g'risidagi va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risidagi, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, 2017-2021 - yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, maktabgacha ta'lim muassasalarining qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish hamda pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti bu tizimga alohida e'tibor qaratmoqda. Shu masalaga doir bir necha yig'ilishlar o'tkazildi, qarorlar qabul qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida 2017- yil 16- avgust kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yilgan edi.

Mazkur sohani takomillashtirish maqsadida qabul qilingan dasturda maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini sifatida, bu jarayonda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni applikasiya ishiga o'rgatishga innovatsion yondashuvdagi o'rni hamda, respublikada ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi ekanligi ta'kidlangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017yil

² Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyat barpo etish ustuvor maqsadlarimizdir. "Namangan haqiqati" gazetasi. 2010 yil № 9. 1-bet.

7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni, 2017 yil 26 sentyabrdagi “Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta‘limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3289-sonli Qarori, hamda 2017- yil 9- sentyabrdagi “Maktabgacha ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261-sonli 7-qaroridagi zamonaviy talablar asosida maktabgacha ta‘lim muassasalari tarbiyachilarini qayta tayyorlash jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda tarbiyachilarning kasbiy kompetentligi bilan bir qatorda ham muntazam oshirib borishni nazarda tutadi. SHu bilan bir qatorda maktabgacha ta‘lim muassasalarida bolalarni applikatsiya ishiga o‘rgatishga innovatsion yondashuvlarning mazmun-mohiyatini ochib beradi.

O‘zbekiston Respublikasida davlat maktabgacha ta‘lim muassasasi

to‘g‘risida Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta‘limni uyda, otalarning mustaqil ravishda ta‘lim va tarbiya berishi orqali yoki doimiy faoliyat ko‘rsatadigan maktabgacha ta‘lim muassasalarida, shuningdek, muassasaga jalb qilinmagan bolalar uchun maktabgacha ta‘lim muassasalarida, maktablarda, mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda oladi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta‘limiga o‘tishi ko‘pincha uning hayoti, axloqi, qiziqish va munosabatlarida jiddiy tub o‘zgarishlarni yuzaga chiqaradi. SHuning uchun maktabgacha yoshdagi bolani maktabgacha ta‘lim muassasasida yoki uydayoq maktab ta‘limiga tayyorlash, bolaning yosh xususiyatiga doir bilim, ko‘nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo‘ladi. Bunday tanishtiruv moslashuv davrining jiddiy qiyinchiliklaridan xalos bo‘lishga yordam beradi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 19- iyuldagi “Maktabgacha ta‘lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 528-sonli qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra, MTM maqsadlari quyidagilardan iborat: bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish; bolalarni ta‘lim va tarbiya orqali maktabga sifatli

tayyorlash;bolalarni maktabgacha ta'limga jalb qilish.Davlat maktabgacha ta'lim muassasasida besh kunlik ish haftasi uchun, qoida tariqasida, quyidagi ish tartibi joriy etiladi: Davlat maktabgacha ta'lim muassasasiga 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar qabul qilinadi (avval bu ko'rsatkich 2-6 yoshni tashkil qilgan, alohida holatlarda 7 yoshgacha qatnashga ruxsat berilgan).Ayni paytda O'zbekiston Respublikasida 3-7 yoshda bo'lgan 2,3 million bolaning 31 foizigina maktabgacha ta'lim muassasalari tomonidan qamrab olingan.

Prezident SHavkat Mirziyoyev ana shu sohaga e'tibor qaratib, maktabgacha ta'lim vazirligini tashkil etish to'g'risidagi qarorni imzolagandi.

Bitiruv malakaviy ishining ahamiyati shundan iboratki unda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni applikatsiya ishiga o'rgatishga innovatsion yondashuvlarda amalga oshirishning metodik vazifalarini mashg'ulotlar orqali maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda tushunchalarni shakllantirish masalasida bolalarni xalqimizning munosib hayot kechirishi, jahon talablari darajasida ta'lim olishi va kasb egallashi, inson o'z umri davomida to'playdigan barcha informasiyaning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda olar ekan.Bolaning ongi asosan 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo'lsak, aynan shu davrda uning qalbida, oiladagi muxit ta'sirida ma'naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshlaydi.Bitiruv malakaviy ishining o'rganilganlik darajasi;. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni applikatsiya ishiga o'rgatishga innovatsion yondashuvlarda amalga oshirishning metodik vazifalarini o'rganishda shuningdek xorij tadqiqotchilari. A.A.Markov, A.A.Lyapunov, V.Dobulov, va boshqalar tomonidan ham o'rganilgan. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni applikatsiya ishiga o'rgatishga innovatsion yondashuvlarda amalga oshirishning metodik ahamiyati shakllantirish vazifalarini o'rganishda u yoki bu muammolari F.B.Valixo'jayeva, Z.Rahimova, N.Egamberdiyevalarning tadqiqotlarida, umuman S.K.Annamuratova, S.Bulatov, SH.Munavvarov, H.Nurmatov, A.Sulaymonov, S.Fayzulina, R.Hasanovlarning ishlarida o'z aksini topgan. Maktabgacha ta'lim muammolarining tadqiq nuqtai nazaridan

D.X.Alimova, X.N.Qosimova, T.S.Kamarova, T.Gafforovalarning, M.SH.Rasuleva, S. D.Sharipova T.Islomova, M.Abdullayevalarning tadqiqotlari yoʻnalishdagi vazifalar uchun ilmiy manba vazifasini oʻtashi mumkin

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi :

Maktabgacha taʼlim muassasalarida bolalarni applikatsiya ishiga oʻrgatishga innovatsion yondashuvlarning pedagogik asoslari.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

1. Maktabgacha taʼlim muassasalarida bolalarni applikatsiya ishiga oʻrgatishga innovatsion yondashuvlar muammosini pedagogik – psixologik adabiyotlardagi taxlili.
2. Tadqiqotning ekspremental modelini yaratish.
3. Maktabgacha taʼlim muassasalarida bolalarni applikatsiya ishiga oʻrgatishga innovatsion yondashuvlar vazifalarini oʻrganish.
4. Natijalarni miqdor va sifat jihatidan taxlil qilish xamda pedagogik xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish

Bitiruv malakaviy ishining predmeti :

Maktabgacha taʼlim muassasalarida bolalarni applikatsiya ishiga oʻrgatishga innovatsion yondashuvning redagogik asoslarini mazmuni, metodikasi.

Bitiruv malakaviy ishining obʻekti:

Maktabgacha taʼlim muassasalarida bolalarni applikatsiya ishiga oʻrgatishga innovatsion yondashuvlarda amalga oshirishning metodik ahamiyati .

Bitiruv malakaviy ishining ahamiyati:

Maktabgacha taʼlim muassasalarida bolalarni applikatsiya ishiga oʻrgatishga innovatsion yondashuvlarda amalga oshirishning metodik ahamiyatida . Maktabgacha taʼlim muassasalarida bolalarni applikatsiya ishiga oʻrgatishga innovatsion yondashuvlarda katta guruh bolalarining birgalikda ishlashlari mumkin va bu oʻzlarining xamkasblari bilan muloqot qilish koʻnikmalarini rivojlantiradi, yoʻnalishda ijobiy taʼsir etishi mumkin, fanlarini oʻqishda axborot

texnologiyalarini, texnologiyasini o'quv-tarbiya jarayoniga tadbiq etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlariga ko'proq jalb etish xozirgi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

BMI ning tuzilishi va strukturasi:

Bitiruv malakaviy ishi 69 bet bo'lib, u kirish, 2 ta asosiy bob, tajriba ishlari, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar,ilovalar bo'limidan tuzilgan

I. BOB . MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALARNI APPLIKATSIYA ISHIGA O'RGATISHGA INNOVATSION YONDASHUVNING IJTIMOY PEDAGOGIK ASOSLARI.

Bolalarning sog'lom va bilimli, etuk kadrlar bo'lib voyaga etishida maktabgacha ta'lim jarayonida oladigan tarbiyasi juda muhim o'rin tutadi. Avvalo, yil davomida mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarni bajarish uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlari safarbar etilganini ta'kidlash joiz.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar xalqimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu o'zgarishlarning dastlabki natijalari aholimiz hayoti va kundalik turmushida o'zining yaqqol ifodasini topmoqda, el-yurtimizning ijtimoiy faolligi, ertangi kunga ishonchi o'sib bormoqda.

Biz mamlakat hayotiga doir har bir qarorni xalqimiz bilan maslahatlashib, bevosita muloqot asosida qabul qilmoqdamiz. "Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan g'oya bu borada faoliyatimiz mezoniga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora –tadbirlari to'g'risida"gi 2016 yil 29 dekabrda PQ-2707-sonli hamda 2017 yil 30 sentyabrda maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli Farmonlari² da ta'lim tizimining birinchi bosqichi bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va ta'lim va ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish, ta'limning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sohasidagi ishlar ahvoli tanqidiy tahlil qilib berildi. .

².Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2017-2021 йилларда таълим тизimini янада такомиллаштириш чора –тадбирлари тўғрисида"ги 2016 йил 29 декабрдаги ПҚ-2707-сонли ҳамда 2017 йил 30 сентябрдаги мактабгача таълим тизими бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-5198-сонли Фармонлари

Davlat xodimlari, avvalo, birinchi rahbarlar faqat kabinetda o‘tirmasdan, joylarga borib, aholini bezovta qilayotgan eng dolzarb muammolarning amaliy echimi bilan shug‘ullanmoqda.

Nodavlat ta’lim muassasasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda davlat akkreditatsiyasidan o‘tgan paytdan boshlab yuridik. Ushbu qonunga ko‘ra, ta’lim muassasasi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan ustav asosida faoliyat ko‘rsatadi. Ta’lim muassasalari o‘quv-tarbiya majmualariga hamda o‘quv-ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari va uyushmalariga birlashishga haqli. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 19-iyuldagi "Maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida"gi 528-sonli qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra, MTM maqsadlari quyidagilardan iborat:

bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish;

bolalarni ta’lim va tarbiya orqali maktabga sifatli tayyorlash;

bolalarni maktabgacha ta’limga jalb qilish.

Mamlakatimizda mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab ta’lim sohasida eski yondashuvlardan butunlay voz kechilib, yangicha tamoyillarga, milliy qadriyat va an’analarimizga, jahon mamlakatlarining ilg‘or tajribasiga asoslanib, hayotimizni tubdan yangilash, uzoq va davomli maqsadlarni amalga oshirish uchun ta’lim va tarbiya sohasiga ustuvor ahamiyat qaratilib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni 1997- yil 29-avgustda qabul qilingan bo‘lib ushbu qonun 5-bo‘lim va 34-moddadan iborat. Ushbu Qonun fuqarolarga ta’lim, tarbiya berish, kasb-hunar o‘rgatishning asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviyligiga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tizimi o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

-davlat standartlariga muvofiq ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta’lim muassasalari;

-ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;

-ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar.

Tegishli bosqichdagi ta'limni tugallamagan shaxslarga belgilangan namunadagi ma'lumotnoma beriladi deyilgan. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining 20-moddasida ta'lim oluvchilarni ijtimoiy himoya qilish, ya'ni me'yoriy hujjatlarga muvofiq imtiyozlar, stipendiya va yotoqxonada joy bilan ta'minlash, 21-moddasida ta'lim muassasalari xodimlariga ish vaqtining qisqartirilgan muddati belgilanishi, haq to'lanadigan yillik uzaytirilgan ta'tillar, hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar, ta'lim muassasalari ish haqiga mo'ljallangan mavjud mablag'lar doirasida mustaqil ravishda stavkalar, mansab okladlariga tabaqalashtirilgan ustama belgilashga hamda mehnatga haq to'lash va uni rag'batlantirishning turli shakllarini qo'llashga haqliligi, 22-moddasida etim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni o'qitish va ularni boqish davlatning to'la ta'minoti belgilangan tartibda amalga oshirilishi, 23-moddasida esa jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar va o'smirlarni o'qitish, qisman yoki to'la davlat ta'minotida bo'lishi belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlariga quyidagilar: ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish; ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qilish; ta'limni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

ta'lim muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini

belgilash; ta'lim muassasalarini akkreditatsiyadan, pedagog, ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibini belgilash;

O'zbekiston Respublikasining hududida boshqa davlatlarning ta'lim muassasalariga ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish ruxsatnomalarini berish; davlat

ta'lim standartlarini tasdiqlash;davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash; davlat grantlari miqdori va ta'lim muassasalariga qabul qilish tartibini belgilash; davlat oliy ta'lim muassasasining rektorlarini tayinlash;ta'lim oluvchilarni akkreditatsiya qilingan bir ta'lim muassasasidan boshqasiga o'tkazish tartibini belgilash va boshqa vakolatlar kiradi.

Ta'limni boshqarish bo'yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlarining vakolatlari sifatida quyidagilar belgilab berilgan:ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ro'yobga chiqarish;ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslub masalalarida ularga rahbarlik qilish; davlat ta'lim standartlari, mutaxassislarning bilim saviyasi va kasb tayyorgarligiga bo'lgan talablar bajarilishini ta'minlash; o'qitishning ilg'or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta'limning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayoniga joriy etish;o'quv va o'quv-uslubiy adabiyotlarni nashr etishni tashkil qilish;ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta'lim muassasalarida eksternat to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash;davlat oliy ta'lim muassasasining rektorini tayinlash to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish;pedagog xodimlarni tayyorlashni, ularning malakasini oshirishni va qayta tayyorlashni tashkil etish va shu bilan birga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar kiradi.nodavlat ta'lim muassasalari "Ta'lim to'g'risida"gi qonun hujjatlarini buzgan taqdirda, akkreditatsiya qilgan organlar ularning faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiq to'xtatib qo'yishga haqli ekanligi;nodavlat ta'lim muassasalariga qabul davlat o'quv yurtlari uchun belgilangan tartibda va muddatlarda amalga oshirilishi qayd etilgan.

Shuningdek, voyaga etmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolaning manfaatlarini himoya qilishlari shart ekanligi hamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishlari uchun javobgarligi;Davlat ta'lim muassasalarini moliyalash respublika va mahalliy byudjetlar mablag'lari, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga

oshirilishi; Ta'limni rivojlantirish fondlari belgilangan tartibda yuridik va jismoniy shaxslarning shu jumladan chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari hisobidan tashkil etilishi mumkinligi; Ta'lim muassasalari ta'lim muammolari yuzasidan xalqaro hamkorlikda ishtirok etishlari, xorijiy mamlakatlarning tegishli o'quv yurtlari bilan bevosita aloqalar o'rnatishi, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ular bilan qo'shma o'quv yurtlari tashkil etish; Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'lishi yoritib berilgan.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni qoidalariga, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri o'qib bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'lini tanlashi kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil etish zaruratini yuzaga keltirdi va qator chora-tadbirlar ko'rishni, jumladan: Davlat ta'lim standartlarini joriy etishni, yangi o'quv rejalari, dasturlari, darsliklarni joriy etishni, zamonaviy didaktik ta'minotni ishlab chiqishni, o'quv yurtlarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiyalashni, yangi tipdagi ta'lim muassasalarini tashkil etishni taqozo etdi.

Kadrlar tayyorlash tizimining demokratik o'zgarishlar va bozor islohotlari talablariga muvofiq emasligi, o'quv jarayonining moddiy - texnika va axborot bazasi etarli emasligi, yuqori malakali pedagog kadrlarning etishmasligi, sifatli o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyot hamda didaktik materiallarning kamligi, ta'lim tizimi, fan va ishlab chiqarishi o'rtasida puxta o'zaro hamkorlik va o'zaro foydali integratsiyaning yo'qligi kadrlar tayyorlashning mavjud tizimidagi jiddiy kamchiliklar sirasiga kiradi. Kadrlar tayyorlash tizimining islox qilish omillari

sifatida quyidagilarni ta'kidlash zarur: Respublikaning demokratik ,adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan borayotganligi; Davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi qaror topganligi;O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyasi, respublikaning jahondagi mavqei va obro' - e'tiborining mustahkamlanib borayotganligi.

Bugungi maktab bolasidan aniq bilimlarga emas, fikrlash ko'nikmasi, kattalar va tengdosh o'rtoqlarini tushunish, ular bilan hamkorlik qilish ham talab etiladi. SHuning uchun bola maktabga qadam qo'yayotganida qanchalik bilimga ega ekanligi emas, balki uning yangi bilimlarni egallashga tayyorligi, atrof-olamga moslashishi ko'nikmasi, voqea-hodisani mustaqil ravishda ta'lil etishi va mustaqil harakat qilishi muhimroq hisoblanadi. Bolani biror narsaga o'rgatishgina emas, unda o'z kuchiga ishonchni oshirish, o'z g'oyasini himoya qilish, mustaqil ravishda bir qarorga kelish hamda unda "Men" konsepsiyasini shakllantirish ham muhimdir.O'zbekiston Respublikasida davlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risida Nizom"ga muvofiq bola maktabgacha ta'limni uyda, ota-onalarning mustaqil ravishda ta'lim va tarbiya berishi orqali yoki doimiy faoliyat ko'rsatadigan maktabgacha ta'lim muassasalarida, shuningdek, muassasaga jalb qilinmagan bolalar uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida, maktablarda, mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda oladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta'limiga o'tishi ko'pincha uning hayoti, axloqi, qiziqish va munosabatlarida jiddiy tub o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. SHuning uchun maktabgacha yoshdagi bolani maktabgacha ta'lim muassasasida yoki uydayoq maktab ta'limiga tayyorlash, bolaning yosh xususiyatiga doir bilim, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo'ladi. Bunday tanishtiruv moslashuv davrining jiddiy qiyinchiliklaridan xalos bo'lishga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari yuqorida qayd etilgan vazifalarni amalga oshirishdagi me'yoriy hujjat hisoblanadi.Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlatalablari O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun,

Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, Respublikada idoraviy bo‘ysunish va mulkchilik shaklidan qat’iy nazar maktabgacha ta’lim tizimi hamda oilalarda bolani to‘laqonli tarbiyalash, ta’lim berish va rivojlantirish, uni maktabga samarali tayyorlashda qo‘llanishi majburiy bo‘lgan davlat hujjatidir.

1.1.O‘zbekiston pedagoglari maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni applikatsiya ishiga o‘rgatishga innovatsion yondashuvning ilmiy o‘rganilganligi.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini isloh qilish, unga rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or texnologiyalarini joriy qilish, milliy qadriyatlarimizni singdirgan holda ta’limni tashkil etish, bu jarayonni puxta va samarali amalga oshirish ishlari bugungi kunda davlat siyosagi darajasiga ko‘tarildi.

Kelajakda erishishimiz lozim bo‘lgan buyuk maqsadlarga etishish uchun eng avvalo yuqori malakali, zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlar talab etiladi. Hozirgi davrda mashg‘ulot jarayonini tashkil etish tarbiyachidan faqat chuqur bilimgina emas, balki pedagogik mahoratga ega bo‘lishlari, mashg‘ulotlarning olib borishining turli uslublarini bilish hamda o‘z ustida tinmay izlanishlarini talab qiladi.

Ta’lim-tarbiya jamiyat taraqqiyotini asosidir. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni applikatsiya ishiga o‘rgatishga innovatsion yondashuvlarda tarbiyachilarni mashg‘ulotlar orqali maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda hozirgi paytda qator ilmiy-metodik va pedagogik muammolarni, ya’ni tarbiyachilarning pedagogik mahoratlarini oshirish, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini yuqori darajada o‘zlashtirganlik talab etiladi.

Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni applikatsiya ishiga o‘rgatishga innovatsion yondashuvlarda tarbiyachisining mashg‘ulotlar orqali shakllantirish muammosi ta’limning dastlabki bosqichlarida muxim ahamiyat kasb etadi. Bu muammoni xal etishda nafaqat maktabgacha ta’lim

muassasasi, tarbiyachilar bolalarni applikasiya ishiga o'rgatishga innovatsion yondashuvlarda mashg'ulotlar yordamida bera oladigan mutaxassislar kerak.

Shuning uchun maktabgacha ta'lim muassasalaridagi tarbiyachilar bolalarni applikasiya ishiga o'rgatishga innovatsion yondashuvlarda , ijodiy fikrlashini, turli xolatlarni tez ilg'ay olishini, atrof muhitni tasavvur eta olishini, intellektual rivojlanishini ta'minlashda muxim omil sanaladi.

«Kelajak bugundan boshlanadi, tarbiya masalasiga e'tibor qilinmasa, kelajak boy beriladi. Tarbiyadan hech narsani ayamaymiz, ma'naviy va axloqiy poklanish, iymon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat va shu kabi chinakam insoniy fazilatlar o'z-o'zidan kelmaydi, hammasining zaminida tarbiya yotadi, zero, bugungi yosh avlodga o'tmishimiz kim ekanligini anglatish, biz kimning avlodi ekanligimizni etkazish eng dolzarb masalalardan biridir»² deb ta'kidlaganlar. Tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim va tarbiyasida bolalarni applikasiya ishiga o'rgatishga innovatsion yondashuvlarda, o'yinlarining rolini to'liq anglay olishi lozim. Maktabgacha ta'lim bolani sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyqotadi, bolalarni applikasiya ishiga o'rgatishga innovatsion yondashuvlarda muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi.. Maktabgacha ta'lim maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.Maktabgacha ta'limni rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo'ladi: malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash; maktabgacha ta'limning samarali pedagogik uslublarini izlash va joriy etish; bolalarni oilada tarbiyalashni tashkiliy, pedagogik va uslubiy jihatdan ta'minlash;zamonaviy o'quv-uslubiy qo'llanmalar, texnik vositalar, o'yinchoqlar va o'yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish; maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma'naviy-ahloqiy, jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish ; maktabgacha muassasalarning har xil turlari uchun turli variantlardagi dasturlarni tanlab olish, maktabgacha ta'limning barcha masalalari bo'yicha malakali maslahat

xizmati, ko'rsatish imkoniyatini yaratish; maktabgacha ta'lim va sog'lomlashtirish muassasalari tarmog'ini qo'llab- quvvatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqishdan iboratdir.

Har bir xalq, millat, davlatning tarixiy taraqqiyoti ta'lim-tarbiya, ma'naviyat darajasiga bog'lik bo'lgan.

Aziziddin Nasafiy "Bilgilki, komil inson deb, shariat va tariqatda va xaqiqatda etuk bo'lgan odamlarga aytilar, bilgilki, komil inson shunday insondirkim, unda quyidagi to'rt narsa kamolotga etgan bo'lsin: yaxshi fehl, yaxshi so'z, yaxshi axloq va maorif". Demak, komil inson barkamol shaxs premetida fan va din tarixan bilan uzviy bog'liq rivojlangan.

AbuNasr Farobiy "Fozil odamlar shaxri" fazilatlarini tahlili esa, tasavvufda "inson o'ziligini bilishi Olloxni bilishi" komillik mezoni sifatida ifodalanadi.

Istiqlol tufayli komil inson ta'limoti, jamiyat taraqqiyotida inson omili, mamlakat, xalqning, millat ma'naviy qudrati ustivor masalasiga aylandi. Prezidentimiz asarlarida butun bir barkamol avlodga ta'lim –tarbiya berishning ta'limiy, ilmiy va amaliy asoslari yaratildi. Buning zamirida yuksak insonparvarlik har bir bolalarning tarbiyalash uchun ham Vatan, millat ravnaqi, mohiyati o'z ifodasini topgan.

Kadrlar tayyorlash modelida uzluksiz ta'lim tizimining barkamol avlodni shakllantirish imkoniyatlari vazifalari belgilab berildi. Maktabgacha ta'limning yangi konsepsiyasi yaratildi. "Maktabgacha ta'lim vazifasi barkamol, sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, bolalarda o'yinga, mehnatga, o'qishga intilish uyg'otadi, bolalarni maktabda ta'lim olishga tayyorlaydi.

Maktabgacha ta'limda bolalar olti-etti yoshga etguncha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida xamda oilalarda tarbiyalanadi. Maktabgacha ta'lim maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarishda mahallalar, jamoa xayriya tashkilotlari, halqaro fondlar faol ishtirok egadilar.

Bolaning ongi asosan 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo'lsak, aynan shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta'sirida ma'naviyatning ilk

kurtaklari namoyon bo‘la boshlaydi. Ta’limga yangi pedagogik texnologiyalarini, tatbiq etishdan iborat. Mamlakatimizdagi pedagogika fanlarini o‘qitishda ta’lim-tarbiya jarayoniga texnologiyani tadbik etishga jiddiy e’tibor qaratib, rivojlangan davlatlar darajasiga etib olishdan iborat. Buning uchun, shu yo‘nalish bo‘yicha ilmiy-tatqiqot ishlarini rivojlantirish va respublikaning ilmiy salohiyatini ushbu yo‘nalishga qaratish zarur.

Tarbiyachi mashg‘ulotda bosh figura, bolalarda esa tarbiyachilarning topshiriqlarini, tushuntirishlarini, turli huquqiy tushunchalarini shakllantirish, yangiliklarini qabul qilish darajalari xar xil hohish-istaklari turlicha. Agar tarbiyachi faqat tushuntirish bilan ovora bo‘lsa bola mustaqil fikr yuritish mushoxada qilish, bolalarni applikatsiya ishiga o‘rgatishga xulosa chiqarish. Mashg‘ulotda bola asosiy xarakatlantiruvchi kuch, ya’ni o‘rganish, mutola qilish, xulosa chiqaradigan bo‘lishi kerak. Xar bir mashg‘ulot uchun ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi, ya’ni bir-biri bilan uzviy aloqada bo‘lgan uch yoqlama maqsadlar qo‘yiladi. Bunga erishish uchun ham tarbiyachi, xam bola birgalikda xarakat qiladilar. Bu borada o‘yin-mashg‘ulot, sayr-mashg‘ulot, ertak-mashg‘ulot kabi jarayonlar katta ahamiyatga ega bo‘ladi, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda mustaqillik quyidagi omillar ta’sirida shakllanadi.

Hozirgi davrda, maktabgacha tarbiya pedagogikasini rivojlantirishda vatandoshlarimizdan N.Yusupova, O.Dasanboevalar xam o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar.

Maktabgacha ta’lim mussasalarida an’anaviy usulda ta’lim-tarbiya berishning shakli, mazmuni, uslubi va uslubiyoti ko‘pgina adabiyotlarda va jurnal sahifalarida bayon etilgan. Jumladan, ushbu masalalar P.Yusupovaning “Maktabgacha tarbiya pedagogikasi”, O.Dasanboevaning “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi”da va boshqa manbalarda keng yoritib berilgan.

V.I.Loginova, P.G. Samorukovalar MTM larda turli mashg‘ulotlar tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha keng ma’lumot berganlar, jumladan, mashg‘ulot MTM larda ta’lim jarayonining etakchi shakli ekanligi, uning mazmuni va tuzilishi, uni

tashkil etish, boshlanishi, borishi, yakunida tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim va tarbiyasida applikatsiya ishiga o'rgatishga innovatsion yondashuvlarda va boshqalar yoritilgan. P.Yusupova ta'lim shakli to'g'risida quyidagilarni yozadi: "Ta'lim shakli deganda, ta'lim beruvchi pedagog va bolalarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi va kun tartibida ma'lum bir vaqtda o'tkaziladi".

Adabiyotlarda MTMlardagi ta'lim uslublari bo'yicha xam qator fikrlar bildirilgan. Uslub - ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning maqsadli ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni xal etishga yo'naltirilgan o'zaro bog'liq faoliyatlarining izchil usullar tizimidir.

Yu.K.Babanskiy fikricha, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim va tarbiyasida bolalarni applikatsiya ishiga o'rgatishga innovatsion yondashuvlarda xar bosqichda ta'lim mazmuni samaradorligi tegishli uslublar guruxi bilan ta'minlanadi. Tafakkurning etakchi shakllarining rivojlanib tarkib topishi amaliy va ta'lim bilish faoliyatida amalga oshiriladi.

A.K. Matvayeva ta'limning ko'rgazmali uslublari va usullariga qaratilgan ishlarida, bolalarning kuzatish ko'nikmasiga ilk yoshda va kichik maktabgacha talim yoshidan boshlab o'rgatish lozimligini ta'kidlaydi. Tarbiyachi bolalarni applikatsiya ishiga o'rgatishga innovatsion yondashuvlar zarurligini aytib o'tadi. SHu bilan birga, kuzatishning quyidagi ko'rinishlarini keltiradi: esda olib qolish, tabiatidagi narsalarni kuzatishlar. Ular asosida buyum va xodisalarning hususiyatlari hamda sifatlar (kattaligi, ko'rinishi, shakli, rangi va hokazo), shuningdek kuzatiladigan ob'ektning boshqalari bilan aloqasi haqidagi bilimlar shakllanadi; ob'ektlarning o'zgarishi va qayta o'zgarishini kuzatish (materiallarning mehnat faolligi davomida buyumga aylanishi, o'simlik va xayvonlarning o'sishi va rivojlanishi, tabiatdagi, odamlar mehnati va turmushidagi mavsumiy o'zgarishlar va hokazo).

Taniqli olim K.K.Platonov ta'kidlaganidek, mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi-shaxsning sub'ektiv xolati bo'lib, u o'zini tegishli kasbiy faoliyatni bajarishga qobiliyatli va tayyor deb xisoblashini bildiradi.

Bo'lajak pedagogning kasbiy tayyorgarligi murakkab, ko'p bosqichli (darajali), ko'p qirrali (psixik) tizimli tuzilmadir. Tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim va tarbiyasida applikatsiya ishiga o'rgatishga innovatsion yondashuvlarda ularni xisobga olishi kerakdir.

Tarbiyachi bolalarning ta'lim va tarbiyasida applikatsiya ishiga o'rgatishga innovatsion yondashuvlarida tarbiyalayotgan har bir bolaga ehtiyotlik bilan va e'tibor berib muomala qilishi, chunki befahm va qobiliyatsiz bola kamdan kam uchraydi, o'zi o'qimishli bo'lishi, bolalarni sevishi, o'zini yaxshi tuta bilishi, bolalarni bo'lar-bo'lmasga maqtayvermasligi yoki jazolayvermasligi, o'z shogirdlari uchun o'rnak bo'lishi va ularni sinchiklab o'rganishi lozim.

Madaniy va ma'naviy merosimiz bo'lgan Hadisda tarbiya, axloq-odob, o'zaro do'stona munosabatlar, qarindoshlik, mehr-oqibat, adolat, insof-tavfiq bilan bir qatorda ota-ona va farzandlarning o'z ifodasini topgan. Masalan, Hadisda «Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangizlar», deyilgan.

Agar oila ma'nosiz hayot kechirsa, faqat shaxsiy huzur-halovati bilan mashg'ul bo'lsa, agar oilada rahmsizlik va xudbinlik hukm surayotgan bo'lsa, bularning hammasi bolaning ma'naviy qiyofasiga salbiy, ta'sir etmasdan qolmaydi, albatta.

Ota-onaning tarbiyachilik vazifasi to'g'risida ulug' rus yozuvchisi M. Gor'kiy shunday deb yozgan edi: «Bolasini suyishni tovuq ham biladi. Ularni tarbiyalay olish esa — qobiliyat va keng hayoti bilimlarni talab etuvchi davlat miqyosidagi buyuk ishdir».

Mustaqil O'zbekistonimizda barkamol avlodni tarbiyalash va voyaga etkazish va ko'pgina ishlar qilinmoqda. Bu muxim vazifani amalga oshirishda

xalqimiz va mutafakkirlarimiz o‘zbek oilalarida qo‘llanib kelinayotgan tarixiy tajriba va qadriyatlaridan foydalanish natija beradi.

Ma’lumki, o‘zbek halqi azal-azaldan tijorat bilan shug‘ullanib kelgan, butun o‘zining donoligi, tadbirkorligi, mexnatsevarligi bilan nom taratgan ajdodlarimiz hayotining asosini tashkil etgan iqtisodiyot va tijoratga oid boy bilim, tajriba turini tanlar. Ko‘plab ilmiy va badiiy manbalar sharq, shu jumladan, o‘zbek xalqining turmush tarzi xaqida ma’lumotlar beruvchi tarixiy, falsafiy adabiyotlar bunga misol bo‘ladi. Xalollik, poklik, birovning haqiga hiyonat etmaslik odamiylik, odobiylilik bo‘lib, odamni inson sifatida yuksak darajada e’zozlaydi, ulug‘laydi.

Shuning uchun xam Sharq xalqlari adabiyoti, falsafasi, tarixi va madaniyati, shuningdek Islom ta’limoti, ularning asosini tashkil etgan Kur’oni Karim va Xadisi Shariflarda xar bir kishiga xalol yo‘l, peshona teri bilan mexnat qilib mol topish, xayot kechirishlik qayta-qayta o‘qtiriladi. Avlod-ajdodlarimiz o‘zlarining bir necha ming yillik hayot tajribalari va tarixiy kuzatishlaridan kelib chiqib, o‘g‘rilik, bosqinchilik, firibgarlik, hiyonatkorlik va boshqa nopok yo‘llar bilan boylik orttirishni keskin qoralaganlar. Bugungi kunda istiqlol sharofati tufayli yoshlarda milliy, ma’naviy qadriyatlar, qadimiy urf-odatlar, tilimiz, tariximiz, o‘tmish merosimizga e’tiqodni tarbiyalash uchun eng qulay muhit, shart-sharoit yaratildi.

Donishmandlarning xar bir so‘zi, ta’sirchan asarlari odamlarning qalbi va ongi, his- tuyg‘ulariga ta’sir etib, hayotimizdagi kamchiliklarni bartaraf etishga, rivojlanayotgan shaxs dunyoqarashiga, uning ma’naviy hamda estetik bilimdonligini shakllantirishga ko‘maklashadi.

O‘zbek xalqining ma’naviy merosida, uning madaniyatida ulug‘ shoirimiz Alisher Navoiyning o‘rni, uning xizmatlari beqiyosdir. Mutafakkirning iqtisodga oid qarashlari uning "Maxbub-ul kulub" (Qalblar sevgilisi) asarida bayon etilgan.

Bu asarda Navoiy hiyonatchi, o‘z foydasini ko‘zlaydigan, elga qahatchilik tilaydigan, arzon olib, qimmatga sotuvchi olib sotarlarni qoralaydi. U o‘z asarida kimlarni odob-ahloqli, kamtar, sharm-hayoli, halol-pok, nafsini tiya oladigan bo‘lishga da’vat etadi, odamiylikni, huquqiy tarbiya berishni yuksak darajada

ulugʻlaydi. MTM larning maktabga tayyorlov guruxlarida bolalarni applikasiya ishiga oʻrgatishga innovatsion yondashuvlarda mashgʻulotlar garchi dars shaklda oʻtkazilmasada, tarbiyachi u yoki bu mavzu materiali boʻyicha oʻziga mashgʻulot texnologik xaritasini tuzib olishi kerak. Xaritada: mavzu, maqsad va vazifalar. mashgʻulot jarayonining mazmuni, mashgʻulot jarayonini amalga oshirish texnologiyasi, kutiladigan natijalar, kelgusi ishlar, uyga vazifalar aks etishi kerak.

MTMlarning maktabga tayyorlov guruxlari bolalarni applikasiya ishiga oʻrgatishga (6-7 yosh) uchun moʻljallanganiga qaramasdan, koʻp xollarda yosh guruxlarda xam foydalanish mumkin, Ayniqsa yosh guruxlardagi tarbiyalanuvchilarga tarbiyachining izoxi bilan turli qiziqarli tarbiyaviy oʻyinlar yoki bolalar hayotiga doir koʻrgazmalarni namoyish etish qoʻl keladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni applikasiya ishiga oʻrgatishga innovatsion yondashuvlarda bolalar taʼlim-tarbiyasiga quyiladigan davlat talablari va standartlarida maktabga tayyorlov guruxi (6-7 yosh) uchun savodga tayyorlash, bilim va atrof olamni oʻrganish, taʼlim oʻyinlari yoʻnalishlari boʻyicha quyidagilar qayd etilgan nutq oʻstirish boʻyicha nutqning tovush madaniyatini shakllantirish, ijodiy hikoya qilish, nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish, lugʻatini boyitishni faollashtirish, matematika boʻyicha son va sanoq, miqdor (kattalik), shakllar, fazoviy tasavvurlar, vaqt haqida tasavvur bilan tanishtirish boʻyicha gulzorga ekskursiya, paxta dalasiga ekskursiya, musicha va kaptarni kuzatish, ularning xususiyatlari va farqi, xavo va uning xossalari bilan tanishtirish, suv va uning hususiyatlari bilan tanishtirish kiradi.

